

## OLIV ADABIY TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK ASARLARNI O'QITISHGA O'RGATISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

*Muradaliyeva Shahnoza Mahmudovna*  
*AOPSTTM o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda didaktik adabiyotlar uning tamoyillari oliy ta'limda dars jarayonlarida foydalanishning kompetensiyaviy xususiyatlari haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Sharq mutafakkirlari, ta'limiy, axloqiy, Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiy, "Hibbat ul-haqoyiq", Kaykovus, "Qobusnoma"

Adabiyot inson tafakkuri va ma'naviyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Badiiy adabiyotning turli janrlari orasida didaktik asarlar alohida o'rin tutib, insonlarni axloqiy yetuklikka, ezgulikka va donishmandlikka undaydi. Didaktik asarlar asosan hayotiy tajribalar, pand-nasihatlar, hikmatli so'zlar va ibratli voqealar orqali kishilarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida yaratiladi. Ushbu yo'nalish qadimdan mavjud bo'lib, Sharq va G'arb adabiyotida keng rivojlangan. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari – Yusuf Xos Xojib, Imom Al Buxoriy, Nizomiy, Sa'diy, Alisher Navoiy, Kaykovus kabi ijodkorlar asarlarida didaktik motivlar yetakchi o'rin tutadi.

Didaktik asarlar badiiy adabiyotning ajralmas qismi bo'lib, insonlarni ezgulikka, adolatga, axloqiy yetuklikka yo'naltirishga xizmat qiladi. Ushbu asarlar har bir davrda muhim ahamiyat kasb etib, kishilarga hayotiy tajribalarni o'rgatgan va ularning ma'naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirgan.

Didaktik asarlar tarixan nafaqat adabiyotning muhim yo'nalishi, balki ta'lim-tarbiyaning ajralmas vositasi sifatida qaralgan. Ayniqsa, bugungi oliy ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya, axloqiy rivojlanish, shaxsiy kamolotga erishish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik asarlarning o'rni beqiyosdir. Didaktik asar — bu o'z mazmun-mohiyatida o'quv-tarbiya, ma'rifat va axloqiy g'oyalarni targ'ib qiluvchi, bilim oluvchiga hayotiy saboq beruvchi, ijtimoiy foydali fikr va xulq me'yorlarini shakllantirishga xizmat qiladigan badiiy yoki nazariy matndir.

Didaktik adabiyotning asosiy xususiyatlari:

1. O'rgatuvchanlik – asarda aniq saboq, pand-nasihat yoki ma'naviy g'oya bo'ladi.
2. Tarbiyaviylik – axloqiy fazilatlarni targ'ib qiladi.
3. Qahramonlar orqali ta'sir – ijobiy va salbiy obrazlar vositasida o'quvchiga o'rnak ko'rsatiladi.
4. O'qituvchilik maqsadi – o'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga va to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi.

(5th international scientific and practical conference)

Bunday asarlarga misol qilib hind xalq eposi “Kalila va Dima”, Mahmud Koshgariyning “Devonu lug’otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, “Ahmad Yuknakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy ma’naviy” Nosiruddin Burhoniddin Rabg’oziyning “Qissasi Rabg’uziy”, Nosiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, Farididin Attorning “Pandnoma”, “Ilohiynoma”, “Mantiq ut-tayr”, “Ushturnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” yoki “Nasoyim ul-muhabbat”, kabi bir qator asarlarini keltirishimiz mumkin.

Didaktik asarlarga adabiyotning muhim yo‘nalishi, balki ta’lim-tarbiyaning ajralmas vositasi sifatida qaralgan. Ayniqsa, bugungi oliy ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya, axloqiy rivojlanish, shaxsiy kamolotga erishish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik asarlarning o‘rni beqiyosdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon nashriyoti, 2007. 126-bet.
2. Ahmad Yugnakiy. “Hibat ul-haqoyiq”. – Toshkent: [www.ziyo.uz.com](http://www.ziyo.uz.com) kutubxonasi, 18-bet.
3. Kaykovus. “Qobusnoma”. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 111-bet.
4. Selevko G.K. *Sovremennye obrazovatelnye Uchebnoeposobie*. – M.: Narodnoe obrazovanie, 2018. – 256 s